

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HAMDA ASOSIY SAVDO-HAMKOR
DAVLATLARNING MILLIY VALYUTASINING REAL ALMASHUNUV KURSI
QADRSIZLANISHI VA MAMLAKATLARNING AQSH DOLLARIGA NISBATDAN
DINAMIKASINI O'ZGARISHI**

O'rinovali Komiljon Tolibjon o'g'li

**Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Bank ishi va audit" yo'nalishi 2-bosqich
talabasi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6667613>

Annotatsiya. Ushbu maqolada real samarali almashinuv kursi hamda nominal almashinuv kurslari orqali O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi (so'm)ning qadrsizlanishini tahlili va davlatimizning asosiy savdo-hamkor mamlakatlarning valyutalari kursi 2022 yilning may oyiga qadar AQSH dollariga qaraganda dinamikasi qanday o'zgarganligi haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: real samarali almashuv kursi, REER, nominal almashuv kursi, milliy valyuta, inflatsiya, Rossiya rubli, Xitoy yuan, Turk lirasi, Qozog'iston tengesi.

**ДЕВАЛЬВАЦИЯ РЕАЛЬНОГО КУРСА НАЦИОНАЛЬНЫХ ВАЛЮТ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ОСНОВНЫХ ТОРГОВЫХ ПАРТНЕРОВ И
ИЗМЕНЕНИЕ ДИНАМИКИ СТРАН ПО ОТНОШЕНИЮ К ДОЛЛАРУ США**

Аннотация. В данной статье анализируется девальвация национальной валюты Республики Узбекистан (сум) через реальный эффективный обменный курс и номинальные обменные курсы, а также то, как изменялась динамика обменных курсов основных торговых партнеров страны по отношению к доллару США до май 2022 г.

Ключевые слова: Реальный эффективный обменный курс, РЭОК, номинальный обменный курс, национальная валюта, инфляция, российский рубль, китайский юань, турецкая лира, казахский тенге.

DEPRECIATION OF THE REAL EXCHANGE RATES OF THE NATIONAL CURRENCIES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND MAJOR TRADING PARTNERS AND CHANGES IN THE DYNAMICS OF THE COUNTRIES AGAINST THE US DOLLAR

Abstract. This article analyzes the devaluation of the national currency of the Republic of Uzbekistan (soum) through the real effective exchange rate and nominal exchange rates, and how the dynamics of the exchange rates of the major trading partner countries of the country against the US dollar until May 2022.

Keywords: Real effective exchange rate, REER, nominal exchange rate, national currency, inflation, Russian ruble, Chinese yuan, Turkish lira, Kazakh tenge.


KIRISH. Aprel oyiga kelib milliy valyuta ya'ni so'mning real samarali almashuv kursi 1,4% ga qadrsizlanganligini bankers.uz sahifasida e'lon qilgan edi. Bu real almashuv kursini tahlil qilishdan avval, real samarali almashinuv kursi va nominal almashuv kurslari nima ekanligini tushunib olsak.

Real samarali almashuv kursi (REER) — asosiy savdo-hamkor mamlakatlar valyutalariga nisbatan nominal almashuv kurslarini ham, tegishli mamlakatlardagi narxlar darajasining nisbatini ham hisobga oluvchi indeksdir.

Nominal almashuv kursi — davlat valyutasining boshqa valyutadagi qiymati yoki valyutani ayirboshlash mumkin bo‘lgan joriy kurs.¹

Demak, tahlillar shuni ko‘rsatdiki, real samarali almashuv kursi joriy yilning may oyiga kelib tendensiyaning pasayuvchi ko‘rsatkichini qayd etdi. 2022 yil aprel oyiga qaraganda qariyb 1,8% ga qadrsizlandi. 2021 yil mos davriga qaraganda 1,9 % qadrsizlangan edi, baza oy esa – 2019 yil sentyabriga² qaraganda 2,4% ga mustahkamlandi.

Nominal va real effektiv almashuv kurslari indeksi dinamikasi



2019y. sentyabr = 100%

Real foydali almashinuv kursining qadrsizlanishi may oyiga kelib eng ko‘p savdo-hamkor mamlakatlardagi inflatsiya darajasi baland bo‘lishi bilan va valyuta kursidagi turli-tuman yo‘nalishlar bo‘limlardagi o‘zgarishlarni izohlab keladi.

2022 yilning may oyiga kelib real foydali ayirboshlash kursi indeksi dinamikasi shuni ko‘rsatdiki: yuqorilovchi omillar: mamlakatning ichki inflatsiya darajasi – 1% daraja, so‘m almashinuv kursi – 1,7% darajani;

pasaytiruvchi omil: savdo-hamkor mamlakatlar inflatsiya darajasi – 1% darajani, savdo-hamkor mamlakatlar valyuta kurslari o‘zgarishlari – 3,6% darajani ko‘rsatgan edi.

Respublikamizning eng asosiy savdo-hamkor mamlakatlarning valyutalari kursi 2022 yilning may oyiga qadar AQSH dollariga qaraganda turli xil dinamikasini ko‘rsatdi:


- May oyida Rossiya rubli 19 % mustahkamlab qo‘ydi.
- Rossiya Markaziy banki 27 may kuni asosiy stavkasini 14 % dan 11 % gacha pastladi.
- Tenge, Qozog‘istonda aprel oyiga kelib 5% mustahkamlab qo‘ydi

¹ <https://www.gazeta.uz/oz/2022/03/14/reer-2021/>

² Valyuta bozorini yanada takomilashtirish hamda erkinlashtirish uchun chora-tadbirlarni hayotga tadbiq etish uchun 20.08.2019 yildan boshlab tijorat banklari orqali naqd xorijiy valyutani aholiga va bozorga sotish yo‘lga qo‘yildi. Chunonchi 2019-yilning sentyabr oyida so‘mning real foydali almashinuv kursi indeksini hisoblashda bazaviy davar sifatida belgilandi.

Rossiya milliy valyutasi rubl mustahkamlangandan keyin tengening mustahkamlanishi xorijiy valyutaga bo‘lgan talablarni ham stabillashtirdi.

Real samarali almashuv kursi (REER) indeksining o‘zgarish dekompozitsiyasi



- Turk lirasi bo‘lsa bu oyga kelib 6% ga qadrsizlandi. Jamiyatimizda neft mahsulotlarni qimmatlashishi va inflatsiyaning baland darajada o‘zgarishsiz qolishi Turkiya milliy valyutasiga yomon bosim o‘tkazmoqda.

- Xitoy yuani may oyida 4% ga qadrsizlanishga keldi. Bu oyda yer yuzida pandemiya sababli ko‘p cheklowlarning mavjudligi tufayli ushbu mamlakatda iqtisodiy faoliyk past ko‘rsatkichda saqlanib qolgan edi.

inflatsiya ko‘rsatkichi mamlakatimizning savdo-hamkor davlatlarida may oyiga kelib barchasida yuqori o‘sishni davom etaverdi:

- Rossiya davlatida 1,7 % inflatsiya darajasi o‘tgan oyga qaraganda sekinlashishi taxmin qilinmoqda. Mevalar, sabzavotlar sotuv muassasalarida ularning narxlari mavsumiy pasayishi, hamda, oylik inflatsiya dinamikasi saqlanib qolishiga qurilish materiallari qiymatlariga bosimning ushlanib qolishi asosiy hissa qo‘shdi.

- Qozog‘istonda yillik 14%, oylik 1,4%ga inflatsiya darajasini ko‘rsatdi. Oziq-ovqat mahsulotlari yillik 19% bo‘lgan bo‘lsa xizmatlar narxi esa 9,1%ga o‘sgan.

- Oylik inflatsiya Turkiyada sal kam 3%ga ko‘tarildi, yillik 73,5%gacha yuqoriladi. Yoqilg‘i va import mahsulotlar narxlari o‘sishiga katta hissa qo‘shdi. Shu jumladan, Turkiyada ishlab chiqaruvchilar qiymatlari indeksi oyiga 8,8% ga o‘sishni ko‘rsatib yiliga 132,2% ga yetdi.

XULOSA. Infaltsiya bosimining zaiflashishi orqali valyutalar kurslarining dinamikasi hamda mamlakatlar aholilari va bizneslarning infliyatsion kutilmalarining ancha pasayishiga yordam beradi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yakubova, Sh. Sh., Rashidov, R. I., Umarova, M. X., & Urinov, K. T. (2022). Ways of effective implementation of monetary policy in our country. ISJ Theoretical & Applied Science, 03 (107), 859-864. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-03-107-64>
Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2022.03.107.64>
2. Alikulov, A. T. (2022). In Uzbekistan, the use of the Stock Market in Attracting Financial Resources by Corporate Entities is One of the Tools. Journal of Marketing and Emerging Economics, 2(5), 66-69.
3. Аликулов, А. Т. (2020). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ ТОРГОВЛИ НА ФОНДОВОМ РЫНКЕ УЗБЕКИСТАНА. In Актуальные вопросы экономики (pp. 63-66).
4. TUYGUNOVICH, A. A., OGLI, S. O. A., & QIZI, K. Z. K. Problems of Improving Stock Market Trading Mechanisms in Uzbekistan. JournalNX, 6(07), 330-334.
5. Alikulov, A. T., Iskandarovich, R. R., & Komiljon, O. (2022). O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING BARQAROR FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHDA RAQAMLI BANK HIZMATLARINI JORIY ETISH. Results of National Scientific Research, 1(2), 62-67.
6. <https://bankers.uz/news/real-exchange-rate-april>
7. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/03/14/reer-2021/>
8. <https://aab.uz/uz/private/plastic-cards/list/national/kobeyjing-kartasi/>
9. Рашидов, Р. И., & Муртазаев, Н. Р. (2020). DIRECTIONS OF INNOVATIVE AGRICULTURAL DEVELOPMENT. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, 2(7).
10. Rashidov, R., Turobov, S., Dustova, M., & Azamatova, G. (2020). The crisis conditions and the ways of solving them. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(7), 2104-2011.
11. Alikulov, A. T. (2022). In Uzbekistan, the use of the Stock Market in Attracting Financial Resources by Corporate Entities is One of the Tools. Journal of Marketing and Emerging Economics, 2(5), 66-69.